

## COURAGE OF GREAT ANCESTORS IS A FACTOR OF HIGH NATIONAL SPIRIT

**Shokhakimov Akromjon Rakhmonovich,**

*Doctor of Philosophy, Senior Lecturer of the Department of National Pride and Military Patriotism of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan*

**Abstract:** The article presents thoughts and opinions on the issues of raising the national spirit and patriotism of military personnel based on the study of the historical roots of our national heritage, wide propaganda of the exemplary life of our great ancestors who showed heroism on the path to freedom of the Motherland.

**Keywords:** national spirit, courage and bravery, righteous man, ancestral courage, national pride, will, emotion, character, spiritual world, great leader, courage and bravery, virtues, bravery, honor of the nation.

### BUYUK AJDODLAR JASORATI – YUKSAK MILLIY RUH OMILI

**Shoxakimov Akromjon Raxmonovich, f.f.f.**

*(PhD), O‘R QK Akademiyasi Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi katta o‘qituvchisi,*

*“G‘alaba taqdirini avvalo qo‘shinning jangovar ruhi va tayyorgarligi, ma‘naviy qudrati va mustahkam irodasi hal qiladi”.*

*Sohibqiron Amir Temur*

**Annotatsiya:** Maqolada milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o‘rganish, Vatan ozodligi yo‘lida qahramonlik ko‘rsatgan buyuk ajdodlarimizning ibratli hayotini keng targ‘ib etish asosida harbiy xizmatchilarda milliy ruh va vatanparvarlikni yuksaltirishga doir masalalar to‘g‘risida fikr va mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** milliy ruh, mardlik va jasorat, adolatparvar, ajdoddar jasorati, milliy iftixor, iroda, his-tuyg‘u, fe‘l-atvor, ma‘naviy olam, buyuk sarkarda, mardlik va jasorat, ezgu fazilatlar, jonbozlik, millat sha‘ni.

**Аннотация:** В статье изложены мысли и мнения по вопросам поднятия национального духа и патриотизма военнослужащих на основе изучения исторических корней нашего национального наследия, широкой пропаганды образцовой жизни наших великих предков, проявивших героизм в путь свободы Родины.

**Ключевые слова:** национальный дух, отвага и отвага, праведник, родовое мужество, национальная гордость, воля, эмоция, характер, духовный мир, великий лидер, отвага и отвага, добродетели, отвага, честь нации.

Dunyo miqyosidagi hozirgi o'ta murakkab vaziyatda mamlakatimiz xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli ta'minlash, harbiy xizmatchilarning milliy va jangovar ruhini yuksaltirish yanada dolzarb vazifamizga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev rahnamolgida so'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimizda ulkan islohotlar o'tkazilmoqda. Davlatimiz rahbari, 2024-yil 14-yanvar "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigida "...milliy armiyamizning chinakam kuch-qudratini belgilab beradigan qo'rqmas va dovyurak harbiylarimiz qalbida jangovar ruhni oshirish, ularni har qanday qiyinchilik va sinovga chidamli va matonatli etib tarbiyalash bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'ladi" [1], deb aytib o'tgan.

Hozirgi kunda yer yuzida bo'layotgan harbiy-siyosiy vaziyatda, harbiy xizmatchilardan umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. [2].

Harbiy xizmatchilarni o'z Vatani uchun jonini fido qilishga tayyor bo'lish mard bo'lishga, undaydigan kuch, eng avvalo ulardagi ma'naviy-ma'rifiy tarbiyadir. Ular ongida bunday tarbiya asosida o'ziga xos milliy ruh shakllanadi. Milliy ruhni jarayon deb olsak, milliy ruhiyat uni shakllantirishdagi tizimdir. Darhaqiqat, milliy ruhni shakllantirishga turli omillar ta'sir etadi. Bu omillardan eng birinchisi va muhimi mamlakat boshqaruvi darajasida xalq himoyasiga yo'naltirilgan davlat siyosatidir.

Prezidentimiz ta'biri aytganda, "Har qanday tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga tayyor milliy armiyamiz - xalqimiz, mamlakatimizning ishonchli va mustahkam qalqonidir. Shuning uchun biz hozirgi kunda harbiy kadrlarning jangovar qobiliyati va tayyorgarligi bilan birga vatanparvarlik tarbiyasiga jiddiy ahamiyat qaratyapmiz. Ya'ni, har bir askar va serjantda, ofitser va generalda, butun shaxsiy tarkibda milliy ruh va gurur kuchli bo'lishi kerak. Milliy ruh - bu yengilmas kuch. Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda, jangovar salohiyat ham yuqori bo'ladi. Kelajakda harbiy bo'lishni orzu qiladigan botir farzandlarimiz milliy ruhni, muqaddas Vatan takdiri uchun mas'uliyat tuygusini qaerdan oladi? Vatanimiz boy tarixidan, Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimiz jasoratidan oladi. O'z oilasi, mehribon ota-onasi hamda el-yurtimizning ishonchi, g'amxo'rligi va e'tiboridan oladi" [3].

Hamisha hamma davrlarda lashkarning kudrati, avvalo, milliy ruh va vatnaparvarlik tuyg'usiga bog'liq bo'lgan. Vatanimiz tarixida ayni shu ulug' tuyg'u sabab o'zidan son jihatdan bir necha o'n barobar ko'p bo'lgan qudratli yov lashkarlarini yenggan qanchadan-qancha jasur ajdodlarimiz o'tgan. To'maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur, bular ma'naviy ruh, mardlik va shijoat, millatparvarlik, vatnaparvarlik tuyg'usi bilan askarlarini yengilmas kuchga aylantira olgan yurt qalqonlaridir. Butun boshli yov qo'shinini sahroda adashtirib halok etgan, oqibatda o'zi ham qurbon bo'lgan cho'pon Shiroq qalbidagi o'lmas ruh vatnaparvarlikning eng yorqin namunasidir [6].

Najmiddin Kubro ulug' yoshida bo'lishiga qaramasdan Chingiz lashkarlariga qarshi mardonavor jangga kirgani, Vatan bayrog'ini uning qo'lidan tortib ololmagan yovuz bosqinchilar u zot halok bo'lganidan keyin qo'lini kesib, bayroqni olishgani tillarda doston bo'lib keladi.

Nizomiddin Shomiy Zafarnoma asarida ma'lum qilishicha, Amir Sohibqiron ikki yuz kishi bilan qolgan vaqtda, Qamariddin payt poylab, to'satdan muntazam lashkari bilan yetib keldi. Shunday bir holatda Amir Sohibqiron dilga quvvat berib, mardonalik ko'rsatish va Tangri hazratiga tavakkal qilishdan o'zga biror chora yo'qligini ko'rdi. U o'sha kichik to'dani yosmishiy etib, ularning ko'nglini ko'tarib aytdi: **“Zafar topish va g'alaba qozonish lashkarning ko'pligida emas, balki Tangri hazratning qo'llab-quvvatlashidadir. Mardona bo'linglar, agar ozgina sustlik qilsak, ish qo'ldan ketadi”**. Lashkarning barisi jonbozlik ko'rsatib olga kadam tashladilar va hamla kilib zo'r jangga kirishdilar. Ular haqiqatda mardligu mardonalik ko'rsatib, yovuz niyatli dushmandan o'chlarini oldilar va nusratu zafar yorligida uning lashkarini qochirdilar. Tangri taolo aytgan: **“Qanchadan-qancha guruhlar Allohning izni bilan katta guruhlar ustidan galaba qilgan. Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir”** [4].

Sohibqiron Amir Temurning dushmaning ko'p ming sonli qo'shinini, kam sonli askarlari bilan maglub etib, yakson qilishida u askarlarining birinchi navbatda ruhiy holatini, ularning vatnaparvarligini yuksaltirgan va buning natijasida doimiy ravishda dushman ustidan galaba qozonishga erishgan.

Ulug' ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburni olaylik. Bu buyuk zot o'n ikki yoshdan boshlab Temuriylar davlatini saklab kolish uchun o'zini o'tga ham, cho'qqa ham urdi, hech kanday dushmandan ham, sinovdan ham qo'rqmadi. Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilmasdan o'tdi. O'z avlodlariga Vataniga bo'lgan buyuk muhabbati, ezgu fazilatlarini meros kilib qoldirdi [5].

Amir Temurning harbiy jasoratini tahlil qilish asosida, biz u tashkil qilgan qudratli va intizomli qo'shin jahonning o'sha vaqtdagi eng ilg'or qo'shini sifatida keyinchalik buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar, tarixchi olimlar tomonidan

e'tirof etilganligi va bir necha asrlardan buyon andoza vazifasini bajarayotganligiga amin bo'lamiz[6].

Bu borada Prezidentimiz "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy gurur va iftixor tuygularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratarebimiz kerak" [4]- deb ta'kidlab o'tgani bejiz emas.

Mamlakatni boshqarishda voqealarning ahamiyati cheksizdir. Voqealar yordamida mamlakatni boshqarish masalalari va davlatdagi mavjud guruh-qatlamlar o'rtasidagi munosabatlar muvofiqlashtiriladi va boshqariladi. Sohibqiron Amir Temur qurultoy, tadbir va kengashlar bilan ishlashga katta ahamiyat bergan. Voqea va nasihatlar bilan ishlagan Amir Temur o'z saltanatini shon-shuhratning yuksak cho'qqilariga ko'tardi[4].

Bugun nafaqat Qurolli Kuchlar tizimidagi askar va ofitserlar, balki har bir balki har bir O'zbekiston fuqarosi qalbida milliy ruh, millat sha'nini asrash tuygusi, vatanparvarlik bayrokday muhim o'rin tutishi lozim. Millatning g'ururi, ori, hamiyati, birligini yo'qotishga, yoshlarimiz yuragidan vatanparvarlik tuyg'usini sindirib tashlashga urinayotgan kuchlarga nisbatan fakat yuksak ma'naviyat, mukaddas Vatanimizga bo'lgan muhabbat tuyg'usi bilan qarshi turish va uni yengish lozim.

Darhaqiqat, ma'naviy barkamol insonning ulug'ligi uning o'zini va atrofidagilarni yuksaklikka ko'taradigan fazilatlarini o'zida mujassamlashtirib, nurlantira olishidadir[8].

Xulosa qilib aytganda, milliy merosimizning tarixiy ildizlarini o'rganish, Vatan ozodligi yo'lida qahramonlik ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish asosida harbiy xizmatchilarda milliy ruh va vatanparvarlik yuksaladi. Milliy ruh kuchli bo'lsa, iroda va jangovar salohiyat ham yuqori bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 32 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 2024. <http://googie.com/searchold.xs.uz/indeks.php/hon>

2. Эгамов Э.Э. Ҳарбий хизматчиларда ҳиссий-иродавий фазилатларини шакллантиришнинг аҳамияти. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS* <http://www.newjournal.org/> *Volume-42\_I ssue-2\_December\_2023.*

3. Mirziyoyev Sh. Qurolli Kuchlarni rivojlantirish borasidagi ishlarni sarhisob qilish, yangi vazifalar belgilash./O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli

Кучлар Оliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev Xavfsizlik Kengashining navbatdagi yig‘ilishi./Xalq so‘zi. 2021. 13 yanvar 8 son. - B. 1

4. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. -Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 1996, - B.527..

5. Xojimatov M. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari. Xalq so‘zi. 2020. 12 yanvar 9-son. - B,3.

6. Shoxakimov A.R. Амир Темурнинг саркардалик маҳоратини ҳарбий хизматчилар жанговар руҳини оширишдаги аҳамияти. "Экономика и социум" №11(113)-1 2023 [www.iupr.ru](http://www.iupr.ru) 1149.

7. Normatov R.T. Role of activities and tips in state management Amir Temur. Current research journal of pedagogics. 2021, <https://masterjournals.com/index.php/srjp>

8.Yuldashev O.Sh. A spiritually developed person is a great person. «Pedagogical cluster» 2024, Volume 02, Issue 06. 26-29 Page. Website: <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/index/>